

RAQAMLI TAHDIDLAR SHAROITIDA YOSHLARNING IJTIMOIIY MAS'ULIYATINI SHAKLLANTIRISH MEXANIZMLARI

Sultonov Xusanboy Nabijonovich

Namangan davlat universiteti tadqiqotchisi

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.22336582>

Annotatsiya. Mazkur maqolada raqamli tahdidlar keng tarqalgan sharoitda yoshlarning ijtimoiy mas'uliyatini shakllantirish mexanizmlarining ijtimoiy-falsafiy mohiyati, uning aksiologik, institutsional va kommunikativ determinantlari tahlil qilinadi. Ijtimoiy mas'uliyat raqamli muhitda shaxsning o'z xatti-harakati oqibatlarini oldindan ko'ra bilish, ularni boshqa subyektlarning manfaatlari bilan uyg'unlashtirish va jamoaviy xavfsizlikni saqlashga tayyorligini ifodalovchi ko'p qatlamli sifat sifatida talqin etiladi. Tadqiqotda raqamli anonimlik, mas'uliyatning taqsimlanishi, axloqiy chetlashuv va normativ nazoratning zaiflashuvi kabi hodisalar yoshlar ongida mas'uliyat tuyg'usining deformatsiyalanishiga olib keluvchi omillar sifatida asoslanadi.

Kalit so'zlar: raqamli tahdid, ijtimoiy mas'uliyat, yoshlar, kiberxavfsizlik, raqamli sotsializatsiya, axloqiy refleksiya, mas'uliyatning taqsimlanishi, raqamli savodxonlik, ijtimoiy daxldorlik, aksiologiya, institutsional ishonch, raqamli etika.

Abstract. This article analyzes the socio-philosophical essence of mechanisms for developing social responsibility among young people in the context of widespread digital threats, as well as their axiological, institutional, and communicative determinants. Social responsibility in the digital environment is interpreted as a multidimensional personal quality that reflects an individual's readiness to anticipate the consequences of their actions, reconcile them with the interests of other actors, and contribute to maintaining collective security. The study substantiates that phenomena such as digital anonymity, diffusion of responsibility,

moral disengagement, and weakened normative control contribute to the deformation of the sense of responsibility in young people’s consciousness.

Keywords: digital threat, social responsibility, youth, cybersecurity, digital socialization, moral reflection, diffusion of responsibility, digital literacy, social engagement, axiology, institutional trust, digital ethics.

Аннотация. В данной статье анализируется социально-философская сущность механизмов формирования социальной ответственности молодежи в условиях широкого распространения цифровых угроз, а также рассматриваются их аксиологические, институциональные и коммуникативные детерминанты. Социальная ответственность в цифровой среде трактуется как многослойное качество личности, выражающее ее готовность предвидеть последствия собственных действий, согласовывать их с интересами других субъектов и обеспечивать коллективную безопасность. В исследовании обосновывается, что такие явления, как цифровая анонимность, диффузия ответственности, нравственная девиация и ослабление нормативного контроля, выступают факторами деформации чувства ответственности в сознании молодежи.

Ключевые слова: цифровая угроза, социальная ответственность, молодежь, кибербезопасность, цифровая социализация, нравственная рефлексия, диффузия ответственности, цифровая грамотность, социальная вовлеченность, аксиология, институциональное доверие, цифровая этика.

KIRISH

Raqamli texnologiyalarning jamiyat hayotiga shiddat bilan kirib kelishi inson mavjudligining an’anaviy ijtimoiy-makoniyl chegaralarini o’zgartirdi va yosh avlod sotsializatsiyasining yangi, gibridd muhitini shakllantirdi. Bugungi yoshlar uchun raqamli makon shunchaki texnik vosita emas, balki o’zlikni anglash, guruhni identifikatsiya qilish, qadriyatlarni o’zlashtirish, obro’ va e’tirof qozonish hamda ijtimoiy munosabatlarga kirishishning asosiy maydoniga aylandi. Ushbu o’zgarish

ijtimoiy falsafa oldiga printsiplial yangi savolni qo'yadi: agar shaxsning harakat maydoni jismoniy nazorat va bevosita ijtimoiy kuzatuvdan qisman chiqib ketgan bo'lsa, uning mas'uliyati qanday asosda shakllanadi va qanday mexanizmlar orqali qo'llab-quvvatlanadi? Mazkur savol nazariy jihatdan mavhum ko'rinsa-da, uning amaliy oqibatlari o'ta konkretdir, chunki aynan mas'uliyatning zaiflashuvi raqamli tahdidlarning yoshlar orasida keng tarqalishiga qulay ijtimoiy zamin yaratmoqda. Raqamli tahdid tushunchasi ostida shaxs, oila, jamiyat va davlat manfaatlariga axborot-kommunikatsiya texnologiyalari vositasida yetkaziladigan zarar ehtimolini yuzaga keltiruvchi hodisalarning butun majmuasi tushuniladi. Bu majmua kiberfiribgarlik, fishing va ijtimoiy muhandislik usullari, shaxsiy ma'lumotlarni noqonuniy egallash, onlayn qimor va garov tizimlariga jalb etish, kiberbulling, destruktiv va ekstremistik mazmundagi kontentni tarqatish, soxta shaxs va deepfake texnologiyalari yordamida manipulyatsiya qilish, raqamli qaramlik hamda axborot ortiqchaligidan kelib chiquvchi kognitiv charchoq kabi tarkibiy elementlarni qamrab oladi. Ushbu tahdidlarning umumiy jihati shundaki, ular texnik zaifliklardan ko'ra ko'proq inson omilining zaif nuqtalariga - ishonuvchanlik, tezkor foyda olishga intilish, ijtimoiy tan olinishga ehtiyoj, hissiy beqarorlik va tanqidiy fikrlashning yetishmasligiga tayanadi. Demak, raqamli xavfsizlik muammosi o'z mohiyatiga ko'ra texnologik emas, balki antropologik va aksiologik muammodir. O'zbekiston sharoitida mazkur muammoning dolzarbligi statistik ko'rsatkichlar bilan ham tasdiqlanadi. Xalqaro tashkilotlar hisobotlariga ko'ra, mamlakatda kiberjinoyatlardan jabrlanganlar soni 2022-yildagi taxminan 20 ming holatdan 2023-yilda 30 mingdan ortiq holatga o'sgan, moliyaviy zarar esa 8,5 million dollardan 25 million dollargacha ko'tarilgan. Ayni paytda jabrlanuvchilarning sezilarli qismini 14-30 yoshdagi shaxslar, ayniqsa ta'lim yoki mehnat faoliyatiga to'liq jalb etilmagan yoshlar tashkil etadi. Bu raqamlar ikki xil talqinga imkon beradi: bir tomondan, ular real xavfning kuchayganini ko'rsatsa, ikkinchi tomondan, raqamlashtirish ko'lamining kengayishi va huquqbuzarliklarni qayd etish

amaliyotining takomillashuvini ham aks ettiradi. Qaysi talqin ustuvor bo'lishidan qat'i nazar, kiberjinoyatchilik endi alohida epizodik hodisa emas, balki ommaviy va tizimli xavfga aylanganini inkor etib bo'lmaydi.

Ijtimoiy mas'uliyat falsafiy kategoriya sifatida uzoq tarixiy taraqqiyot yo'lini bosib o'tgan. Klassik talqinda u shaxsning erkin tanlovi va uning oqibatlari o'rtasidagi uzviy bog'liqlikni ifodalaydi: mas'uliyat erkinlikning inkori emas, balki uning ma'naviy asosidir. Zamonaviy sharoitda esa bu bog'liqlik murakkablashadi, chunki texnologik vositachilik harakat bilan uning natijasi orasidagi masofani sun'iy ravishda uzaytiradi. Hans Jonas texnologik sivilizatsiya uchun mas'uliyat imperativini ilgari surar ekan, klassik axloq harakatning yaqin doiradagi oqibatlariga qaratilganini, zamonaviy texnologiya esa uzoq va bashorat qilish qiyin bo'lgan oqibatlarni yuzaga keltirishini ta'kidlagan [7]. Raqamli muhitda bu holat yanada keskinlashadi: bir marta joylashtirilgan kontent yoki bir marta oshkor qilingan shaxsiy ma'lumot cheksiz ko'chirilish va qayta ishlatilish imkoniyatiga ega bo'ladi, ya'ni harakat o'z muallifining nazoratidan butunlay chiqib ketadi. Ulrich Bek zamonaviy jamiyatni xavf jamiyati sifatida ta'riflar ekan, ishlab chiqarilgan xavflarning taqsimlanishi moddiy ne'matlar taqsimotidan ko'ra muhimroq ijtimoiy masalaga aylanganini ko'rsatgan [8]. Raqamli tahdidlar xuddi shunday tabiatga ega: ular tabiiy ofat kabi tashqaridan kelmaydi, balki jamiyatning o'z texnologik faoliyati mahsuli sifatida ichkaridan yuzaga keladi. Shu bois ularga qarshi kurashning yagona texnik yechimi mavjud emas; zarur bo'lgan narsa - xavfni ishlab chiqaruvchi va uni iste'mol qiluvchi subyektlarning mas'uliyatli xulq-atvorini shakllantirishdir. Yoshlar bu jarayonda ikki tomonlama pozitsiyani egallaydi: ular ham eng ko'p jabr ko'ruvchi guruh, ham raqamli madaniyatning eng faol yaratuvchisi hisoblanadi. Aynan shu ikkilamchi maqom yoshlarni raqamli xavfsizlik siyosatining passiv obyektidan faol subyektiga aylantirish zaruratini keltirib chiqaradi. Raqamli muhitda mas'uliyatning zaiflashuviga olib keluvchi bir necha o'ziga xos mexanizmni ajratish mumkin. Birinchidan, anonimlik va jismoniy masofa onlayn deinhubitsiya effektini

yuzaga keltiradi: foydalanuvchi real hayotda o'ziga ruxsat bermaydigan xatti-harakatlarni raqamli makonda osonlik bilan amalga oshiradi. Ikkinchidan, raqamli jarayonlarda mas'uliyat ko'plab ishtirokchilar - foydalanuvchi, platforma, algoritmi, provayder, tartibga soluvchi organ o'rtasida taqsimlanadi, natijada har bir subyekt o'z hissasini ahamiyatsiz deb baholaydi. Uchinchidan, ekran vositachiligi jabrlanuvchining hissiy holatini ko'rinmas qiladi va empatik javobni susaytiradi. To'rtinchidan, guruh dinamikasi va algoritmik tavsiya tizimlari zararli xulqni normallashtiruvchi axborot pufakchalarini shakllantiradi. Albert Bandura tomonidan asoslangan axloqiy chetlashuv nazariyasi bu jarayonlarni yaxlit tushuntirish imkonini beradi: shaxs o'z qilmishini qayta nomlash, mas'uliyatni tarqatish va oqibatlarni kichraytirish orqali ichki axloqiy nazoratni vaqtincha o'chirib qo'yadi [10].

O'zbekistonda so'nggi yillarda raqamli xavfsizlikning normativ-huquqiy asoslari izchil mustahkamlanib bormoqda. "Kiberxavfsizlik to'g'risida"gi Qonunning qabul qilinishi, kiberjinoyatlarga qarshi kurashish bo'yicha ixtisoslashgan tuzilmalarning tashkil etilishi, ta'lim muassasalarida raqamli savodxonlikni oshirishga qaratilgan dasturlarning joriy qilinishi ushbu yo'nalishdagi tizimli harakatlarning ifodasidir. Shu bilan birga, huquqiy norma mavjudligi bilan uning shaxs ongida ichki e'tiqodga aylanishi bir xil hodisa emas. Agar norma faqat tashqi majburlash sifatida qabul qilinsa, u nazorat zaiflashgan zahoti o'z ta'sirini yo'qotadi. Aksincha, norma shaxsning qadriyat tizimiga singib ketganda, u tashqi kuzatuvdan mustaqil ravishda ishlaydigan ichki regulyatorga aylanadi. Aynan shu o'tish - tashqi nazoratdan ichki mas'uliyatga o'tish - profilaktika ishining eng murakkab va eng natijaviy bosqichi hisoblanadi. Mazkur maqolaning ilmiy muammosi shundan iboratki, raqamli tahdidlar bo'yicha mavjud tadqiqotlarning aksariyati huquqiy kvalifikatsiya, texnik himoya yoki kriminologik statistika doirasida olib borilmoqda, ijtimoiy mas'uliyat esa ushbu yondashuvlarni birlashtiruvchi falsafiy kategoriya sifatida yetarli darajada konseptualashtirilmagan.



Natijada profilaktika amaliyotida taqiqllovchi va ogohlantiruvchi choralar ustuvorlik qilib, yoshlarning ichki motivatsiyasini shakllantirishga qaratilgan mexanizmlar ikkinchi darajali o'rinda qolmoqda. Tadqiqotning maqsadi raqamli tahdidlar sharoitida yoshlarning ijtimoiy mas'uliyati qanday shakllanishi, qaysi institutsional va aksiologik omillar uni kuchaytirishi yoki zaiflashtirishi hamda mas'uliyatli raqamli xulqni barqarorlashtiruvchi mexanizmlar tizimini nazariy jihatdan asoslashdan iborat. Shuni ham qayd etish lozimki, mas'uliyat kategoriyasi vaqt o'lchovi bilan chambarchas bog'liq. U bir martalik qarordan emas, balki takrorlanuvchi tajribalar, izchil talablar va atrof-muhitning barqaror munosabati natijasida shakllanadi. Shu bois raqamli mas'uliyatni tarbiyalash bir semestrlik kurs yoki bir oylik targ'ibot kampaniyasi doirasida hal etilmaydi; u yosh shaxsning butun ulg'ayish davrini qamrab oluvchi uzluksiz jarayonni talab qiladi. Shu maqsaddan kelib chiqib, maqolada ijtimoiy mas'uliyat uch o'lchovli tuzilma sifatida talqin qilinadi. Kognitiv o'lchov shaxsning raqamli muhitdagi xavflar tabiatini, ularning kelib chiqish sabablarini va oqibatlarini anglash qobiliyatini ifodalaydi. Aksiologik o'lchov bu bilimning qadriyatlar tizimiga singishini, ya'ni halollik, adolat, boshqa insonning qadr-qimmatini hurmat qilish, o'zganing mulki va shaxsiy chegaralariga daxlsizlik kabi me'yorlarning ichki e'tiqodga aylanishini bildiradi. Konativ o'lchov esa anglangan va qadrlangan me'yorning real xulq-atvorda, jumladan xavfli holatni o'z vaqtida qayd etish, boshqalarni ogohlantirish va yordam so'rashga tayyorlikda namoyon bo'lishini anglatadi. Ushbu uch o'lchovning uzviy birligigina mas'uliyatni deklarativ e'tirofdan amaliy hayotiy pozitsiyaga aylantiradi va raqamli tahdidlarga qarshi eng barqaror himoya qatlamini shakllantiradi.

Mavzuga oid milliy ilmiy adabiyotlar tahlili yoshlarning raqamli muhitdagi ijtimoiy mas'uliyati muammosiga bir-birini to'ldiruvchi ikki tadqiqot yo'nalishini ko'rsatadi. Birinchi yo'nalishda falsafa fanlari doktori, professor Sadulla Otamuratovning ishlari markaziy o'rin egallaydi. Uning "Globallashuv va millat" monografiyasida globallashuv jarayonlarining milliy identiklikka, an'anaviy

qadriyatlar tizimiga va yosh avlod dunyoqarashiga ko'rsatayotgan ta'siri tizimli ravishda tahlil qilingan [1]. Muallifning "Texnogen sivilizatsiya tizimida milliy manfaatlar" nomli maqolasida esa fan, texnika va texnologiya yutuqlarini milliy manfaatlar bilan uyg'unlashtirish masalasi ko'tarilib, texnogen sivilizatsiyaning millatlar taraqqiyotiga ko'rsatayotgan ko'p yo'nalishli ta'sirini baholash mezonlari muhokama qilinadi. Otamuratovning yondashuvi mazkur maqola uchun shunisi bilan ahamiyatli, u texnologik o'zgarishni neytral jarayon sifatida emas, balki qadriyatlar tizimini sinovdan o'tkazuvchi ijtimoiy hodisa sifatida ko'radi. Falsafiy nuqtai nazardan bu talqin muhim: raqamli tahdid faqat texnik zaiflikdan emas, balki qadriyat yo'nalishlarining beqarorlashuvidan ham oziqlanadi. Shu bilan birga, olimning tadqiqotlari asosan makrodaraja - millat, madaniyat va sivilizatsiya darajasiga qaratilgan; individ darajasidagi mas'uliyat mexanizmlari alohida konsept sifatida markazga qo'yilmagan. Ana shu ilmiy bo'shliq mazkur maqolada makro va mikro darajalarni bog'lovchi vositachi bo'g'inni tahlil qilish zaruratini yuzaga keltiradi.

Ikkinchi yo'nalish Muhammadrahim Karimovning yoshlar dunyoqarashi va innovatsion tafakkuriga oid tadqiqotlarida namoyon bo'ladi. Uning hammualliflikda chop etilgan "Philosophical Analysis of the Concepts of Youth Worldview and Innovative Thinking" nomli maqolasida yoshlar dunyoqarashining shakllanish qonuniyatlari, innovatsion tafakkurning ijtimoiy-falsafiy asoslari va axborot muhitining yosh avlod ongiga ta'siri falsafiy tahlil obyektiga aylantirilgan [3]. Bu yondashuv raqamli mas'uliyat masalasini yoritishda metodologik jihatdan qimmatlidir, chunki u yoshlarni axborot oqimining passiv iste'molchisi emas, balki o'z dunyoqarashini faol qurayotgan subyekt sifatida talqin qiladi. Agar yosh shaxs axborotga nisbatan tanqidiy va ijodiy pozitsiyani egallay olsa, u manipulyativ ta'sirlarga nisbatan sezilarli darajada barqaror bo'ladi. Karimovning tadqiqotlari, ayni paytda, dunyoqarash va tafakkurning gnoseologik jihatlariga ko'proq e'tibor qaratadi; dunyoqarashning mas'uliyatli xulq-atvorga aylanish mexanizmi esa

alohida tadqiqot predmeti sifatida ochib berilmagan. Ushbu ikki yo'nalishni uzviy bog'lash natijasida ijtimoiy mas'uliyatning uch qatlamli modeli namoyon bo'ladi: birinchi qatlam - milliy qadriyatlar va madaniy an'analar shaklidagi aksiologik poydevor; ikkinchi qatlam - tanqidiy va innovatsion tafakkur ko'rinishidagi kognitiv resurs; uchinchi qatlam - ushbu poydevor va resursning real raqamli xulq-atvorda gavdalanishi. Mazkur maqola aynan uchinchi qatlamni falsafiy jihatdan markazga olib chiqadi va uni ikkinchi darajali natija emas, balki tizimning yakuniy mezoni sifatida talqin qiladi. Milliy ilmiy merosning yana bir muhim jihati shundaki, unda ta'lim uzluksizligi ma'naviy dunyoqarashni yuksaltirishning asosiy instituti sifatida qaraladi. Sh. Ergashbayevning uzluksiz ta'lim tizimi orqali yoshlarning ma'naviy-falsafiy dunyoqarashini rivojlantirishga bag'ishlangan tadqiqotlarida bu g'oya izchil asoslangan [2; 6]. Ushbu qarash mazkur maqola uchun bevosita amaliy ahamiyatga ega, zero raqamli mas'uliyat bir martalik targ'ibot tadbiri natijasida emas, balki maktabgacha ta'limdan oliy ta'limgacha bo'lgan butun vertikal bo'ylab takrorlanuvchi va murakkablashib boruvchi ta'sir orqali shakllanadi. Shunday qilib, milliy adabiyotlar globallashuv sharoitidagi qadriyat muammolarini hamda yoshlar dunyoqarashining falsafiy asoslarini yetarli darajada yoritgan bo'lsa-da, ular o'rtasida raqamli mas'uliyatni integrativ kategoriya sifatida tushuntiruvchi konseptual modelga ehtiyoj saqlanib qolmoqda. Mazkur maqola ushbu ilmiy merosni inkor etmaydi, balki uning natijalarini yagona ijtimoiy-falsafiy tushuncha - mas'uliyatli raqamli subyektlik doirasida qayta tizimlashtiradi va milliy qadriyat yondashuvi bilan zamonaviy raqamli etika o'rtasida metodologik ko'priklar yaratadi.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, raqamli tahdidlar sharoitida yoshlarning ijtimoiy mas'uliyati ikkilamchi tarbiyaviy natija emas, balki raqamli xavfsizlik tizimining mazmuni va samaradorligini birlashtiruvchi fundamental ijtimoiy-falsafiy kategoriya hisoblanadi. Yoshlarning himoyalanganlik darajasi faqat texnik vositalar quvvati, o'tkazilgan tadbirlar soni yoki javobgarlik choralarining qattiqligi bilan



belgilanmaydi; u yosh shaxsning xavfni mustaqil anglashi, o'z harakati oqibatini boshqa insonlar taqdiri bilan bog'lay olishi va jamoaviy xavfsizlikka daxldorlik hissi orqali to'liq namoyon bo'ladi. Shu ma'noda raqamli xavfsizlik va ijtimoiy mas'uliyat o'zaro aylanuvchi munosabatga ega: mas'uliyatli xulq xavfni kamaytiradi, xavfning kamayishi esa raqamli muhitga va uni boshqaruvchi institutlarga bo'lgan ishonchni mustahkamlaydi. Tadqiqot asosida mas'uliyatni shakllantirishning beshta mexanizmi - normativ-huquqiy, ta'limiy, oilaviy-mahalliy, media-kommunikativ va o'z-o'zini boshqarish mexanizmlari ajratildi hamda ularning tarmoqli, bir-birini almashtirmaydigan tabiati asoslandi. Taklif etilgan "raqamli savodxonlik - axloqiy refleksiya - ijtimoiy daxldorlik - institutsional ishonch - mas'uliyatli raqamli xulq" modeli profilaktika ishini taqiqlash paradigmasidan subyektlikni shakllantirish paradigmasiga o'tkazish imkonini beradi. Uning amaliy ahamiyati shundaki, raqamli xavfsizlik dasturlarini baholashda faqat qamrov ko'rsatkichlarini emas, balki yoshlarning xavfni aniqlash qobiliyati, murojaat qilishga tayyorligi va tengdoshlari xulqiga befarq qolmaslik darajasini ham muntazam o'lchash zarur. Kelgusida ushbu nazariy model asosida turli hududlar, ta'lim bosqichlari va ijtimoiy guruhlar kesimida sotsiologik tadqiqotlar o'tkazish, mas'uliyat darajasini yosh, ta'lim shakli, oilaviy muhit va raqamli faollik ko'rsatkichlari bilan qiyoslash maqsadga muvofiq. Bunday empirik ishlar qaysi mexanizmlar mas'uliyatni eng kuchli tarzda shakllantirishini, qaysi amaliyotlar esa aksincha begonolashuvni yuzaga keltirishini aniqlash imkonini beradi. Natijada raqamli xavfsizlik siyosati yoshlarni himoya obyekti sifatida ko'rish yondashuvidan ularni raqamli madaniyatning mas'uliyatli hammuallifi sifatida tan olish yondashuviga o'tadi. Mazkur qarash yosh avlodning ijodiy erkinligini, jamiyatning xavfsizlik ehtiyojini va davlatning ijtimoiy mas'uliyatini yagona konseptual maydonda uyg'unlashtiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Otamuratov S. Globallashuv va millat. - Toshkent: Yangi asr avlodi, 2008. - 208 b.
2. Ergashbaev, S. (2025). O 'zbekiston sharoitida uzluksiz ta'lim tizimi orqali yoshlarning ma'naviy dunyoqarashini rivojlantirish. Объединяя студентов: международные исследования и сотрудничество между дисциплинами, 1(1), 314-316.
3. Karimov M., Mamatyusupova R. Philosophical Analysis of the Concepts of Youth Worldview and Innovative Thinking // Miasto Przyszłości. - 2024. - Vol. 48. - P. 719-725.
4. Floridi L. The Ethics of Information. - Oxford: Oxford University Press, 2013. - 384 p. - DOI: 10.1093/acprof:oso/9780199641321.001.0001.
5. Zuboff S. The Age of Surveillance Capitalism: The Fight for a Human Future at the New Frontier of Power. - New York: PublicAffairs, 2019. - 704 p.
6. Ergashbayev, S. (2025). Uzluksiz ta'lim tashkil etish orqali yoshlarning ma'naviy-falsafiy dunyoqarashini yuksaltirish. Bulletin of Contemporary Researches: Multidisciplinary, 1(1), 10-13.
7. Jonas H. The Imperative of Responsibility: In Search of an Ethics for the Technological Age. - Chicago: University of Chicago Press, 1984. - 255 p.
8. Beck U. Risk Society: Towards a New Modernity. - London: SAGE Publications, 1992. - 260 p.
9. Mirzaolimjon og'li, M. M., & Shohbozbek, E. (2025). Yangi O'zbekistonning ta'lim siyosati va universitetlarning yangi modellari. Pedagogik islohotlar va ularning yechimlari, 16(01), 325-328.
10. Bandura A. Moral Disengagement in the Perpetration of Inhumanities // Personality and Social Psychology Review. - 1999. - Vol. 3, No. 3. - P. 193-209. - DOI: 10.1207/s15327957pspr0303_3.